



ISSN: 3060-4613

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI




№06/2025

M

13.00.00 - Pedagogika fanlari
07.00.00 - Tarix fanlari
19.00.00 - Psixologiya fanlari
01.00.00 - Fizika-matematika fanlari
02.00.00 - Kimyo fanlari
03.00.00 - Biologiya fanlari
09.00.00 - Falsafa fanlari
10.00.00 - Filologiya fanlari
11.00.00 - Geografiya fanlari

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga
ixtisoslashgan ilmiy jurnal





BOSH MUHARRIR:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Mizayeva Faroxat Odiljonovna – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O' – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q.M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wooskyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori professor

G'afurov D.O. – falsafa fanlari doktori (PhD)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A.T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R.R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M.A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N.A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Mizayeva Farokhat Odiljonovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Qirg'izboyev A.K – Doctor of Historical Sciences, Professor
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K.M. - Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. - Doctor of Philosophy, Professor
Gafurov D.O. - Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Mirzayeva F.O. - Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. - Doctor of Philosophy, Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. - is a Professor of Toshkent State University of Economics
Ashurov R.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology
Panjiyev M.A - First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N.A. - Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya rayosatining komissiyasining 08.05.2025 yildagi №370/5 qarori bilan Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Psixologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy nashrlar ro'yxatiga kiritilganligini ma'lum qilamiz.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiyasi (25-05-2025 y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (07-05-2025 y., №5/6); OAK Rayosatining qarori (08-05-2025 y., №370/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.06.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan №C-5669245 reyestr
raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan
o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

MUNDARIJA

O'SMIRLARDA DESTRUKTIV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI	6
Umarov Baxriddin Mengboyevich, Jabborova Zilola Baxtiyor qizi ONA VA FARZAND MUNOSABATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	12
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna PROFESSOR-O'QITUVCHILAR IMIJINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	17
Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna OMMAVIY MADANIYATNI BOLALAR XULQ-ATVORIGA TA'SIRINI PSIXOLOGIK SHARTLARI	25
Umarova Navbahor Shokirovna PEDAGOGIK FAOLIYATDA KASBIY SO'NISH JARAYONINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK JIHATLARI.....	29
Botirova Dilafrō'z Bozorovna BULLING XULQ-ATVORINING NAMOYON BO'LISHI VA UNING MAKTAB O'QUVCHILARGA BO'LGAN TA'SIRI	35
Tillayeva Nodira Iskandar qizi TASHKILOTDA MOBBING VA UNING XODIMLAR PSIXOEMOTSIONAL SALOMATLIGIGA IJTIMOY-PSIXOLOGIK TA'SIRI	38
Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi OILAVIY MUNOSABATLARDA YETAKCHILIK MUAMMOLARI	42
Abdumutalova Madina Abdumalik qizi ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLARNING IJTIMOY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	45
Abdurahmanova Durdona Dilshodjon qizi	



O'SMIRLARDA DESTRUKTIV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Umarov Baxriddin Mengboyevich,
Alfraganus universiteti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrası professori,
psixologiya fanlari doktori
E-mail: baxriddin-umarov@mail.ru
ORCID:0009-0002-3285-9111

Jabborova Zilola Baxtiyor qizi,
Alfraganus universiteti magistranti
E-mail: Jabborovazilola57@gmail.com
ORCID: 0009-0008-6985-1512

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'smir yoshidagi o'quvchilarda destruktiv xulq-atvor shakllanishi jarayoni, uni keltirib chiqaruvchi psixologik va ijtimoiy omillar, shuningdek, deviant xatti-harakatli o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda destruktiv xulqli shaxslarning moslashuv darajasini aniqlash va ularni ijtimoiy-psixologik jihatdan moslashtirishga qaratilgan individual yondashuv asosidagi psixokorreksion texnologiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, yoshlarning ichki psixologik resurslariga tayangan holda axloqiy buzilishlarning oldini olishga xizmat qiluvchi kognitiv, shaxsiy-emotsional hamda axloqiy mezonlar tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu tadqiqot natijalari pedagogik-psixologik reabilitatsiya hamda profilaktik chora-tadbirlar samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: destruktiv faoliyat, insoniy fenomen, destruktiv guruh, ijtimoiy tuzilma, muxoliflik xarakteri, destruktiv ta'sir ehtimoli, psixologik qaramlik.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the formation of destructive behavior in adolescents, identifying its psychological and social causes as well as the individual psychological traits of students with deviant conduct. The study develops psychocorrective technologies based on an individualized approach aimed at determining the level of maladaptation and promoting effective social and psychological adjustment. Particular emphasis is placed on enhancing a system of criteria—cognitive, personal-emotional, and moral—that supports the prevention of behavioral disorders through the utilization of adolescents' internal psychological resources. The findings offer valuable implications for improving the efficiency of preventive and rehabilitative measures in educational settings.

Key words: destructive activity, human phenomenon, destructive group, social structure, nature of opposition, potential for destructive influence, psychological dependency.

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается процесс формирования деструктивного поведения у подростков, выявляются его психологические и социальные причины, а также индивидуально-психологические особенности учащихся с девиантным поведением. В рамках исследования разработаны психокоррекционные технологии, основанные на индивидуальном подходе, направленные на определение уровня дезадаптации и содействие социальной и психологической адаптации подростков. Особое внимание уделяется совершенствованию системы критериев — когнитивных, личностно-эмоциональных и нравственных, — способствующих профилактике поведенческих нарушений с опорой на внутренние психологические ресурсы молодежи. Полученные результаты способствуют повышению эффективности профилактических и реабилитационных программ в образовательной среде.

KIRISH

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy hamda iqtisodiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, shuningdek, global miqyosdagi o'zgarishlar davlat va jamiyat oldida



muhim strategik vazifalarni belgilab bermoqda. Destruktiv xulq-atvor holatlarining ortib borayotgani va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning izdan chiqishi ushbu muammoni individual, guruh va jamiyat miqyosida tizimli tahlil qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Xalqaro miqyosda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, xulq-atvor buzilishlarini tahlil qilishda zamonaviy yondashuvlar oila, ta'lim muassasalari, huquqni muhofaza qilish organlari hamda voyaga yetmaganlar uchun mo'ljallangan adolatli sud tizimlarida muhim o'rin tutmoqda. Xususan, voyaga yetmagan huquqbuzarlarga nisbatan individual yondashuv siyosati ularni rehabilitatsiya qilish maqsadida institutsional muassasalar tashkil etishni emas, balki readaptatsiya jarayonini yakka tartibda amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa shaxsga yo'naltirilgan yondashuv doirasida og'ishgan xulq-atvorni shakllantiruvchi omillarni psixologik korreksiya qilish va prosotsial xulq modellarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida huquqbuzarlik bo'yicha statistik ko'rsatkichlar jinoiy harakatlar sonining pasayish dinamikasini aks ettiradi. Biroq, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar tarkibida mulkchilikka qarshi yo'naltirilgan jinoyatlar — jumladan, o'g'rilik, firibgarlik, talonchilik, yo'lto'sarlik, transport vositalarini olib qochish, mulkka qasddan ziyon yetkazish va uni yo'q qilish holatlari yuqori ulushni (85% gacha) tashkil etmoqda. Bu esa o'z navbatida, voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan ishlashda qo'llanilayotgan metod va texnologiyalarning samaradorligi yetarli emasligini ko'rsatadi. Shu bois, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Shaxsning anomal rivojlanishi va destruktiv xulq-atvor nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish borasida bir qator xorijiy olimlarning izlanishlari muhim o'rin tutadi. R.Blackburn (Blackburn, 1993) shaxsning psixologik moslashuvdagi muammolarini va ularning jamiyatdagi salbiy xulq-atvoriga ta'sirini tahlil qilgan. Yu.Bonta, R.Andres va T.Hoge (Bonta, Andrews & Hoge, 1998) jinoyatchilikka moyillikni baholash va prognozlashda psixologik yondashuvlarni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. V.N.Kudryavsev (Kudryavsev, 2002) esa destruktiv xulq-atvorning ijtimoiy va psixologik sabablarini chuqur o'rgangan. A.A.Rean (Rean, 2007) shaxsning ijtimoiy moslashuviga ta'sir etuvchi omillarni, shuningdek, pedagogik va psixologik aralashuv metodlarini ishlab chiqishda yetakchi bo'lgan. B.S.Bratus (Bratus, 1991) esa shaxs psixologiyasi va xulq-atvor buzilishlari nazariyasini yaratishda o'zining muhim ilmiy hissa qo'shgan.

O'zbekistonda so'nggi yillarda o'smirlar orasida destruktiv xulq-atvor shakllanishini o'rganish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi. A.Komilova va X.Maxmydova (Komilova & Mahmudova, 2019) o'smirlar psixologiyasi va ularning ijtimoiy moslashuviga oid nazariy va amaliy masalalarni tadqiq qildi. S.Mirzayeva (Mirzayeva, 2021) yoshlar orasidagi deviant xulq-atvorning ijtimoiy-psixologik sabablarini o'rganib, pedagogik profilaktika usullarini taklif etdi. S.Kamolova (Kamolova, 2020) ta'lim muassasalarida o'quvchilarni psixologik moslashtirish metodlarini tahlil qildi. S.Y.Kulatova (Kulatova, 2022) esa voyaga yetmaganlarning destruktiv xulq-atvoriga individual psixokorreksiya yondashuvlarini ishlab chiqdi va amaliy tadqiqotlar olib bordi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida proektiv, mantiqiy-abstraksiya, guruhlash, tahliliy-qiyosiy, longityud va kompleks metodlardan keng foydalaniladi.

TAHLIL VA NATIJALARI

Hozirgi paytga kelib jahonda bo'lib o'tayotgan chuqur ijtimoiy o'zgarishlar ilgari yetarli darajada ahamiyat berilmagan bir qator fenomenlarga yangicha nazar bilan qarashni taqozo etmoqda. Ulardan biri insonlarning destruktiv faoliyatidir. Inson tabiatining vayronkor jihati ayniqsa, XX asr oxirlari va XXI asr boshlarida ommaviy qotilliklar, inqiloblar, urushlar, terrorchilik harakatlarida yaqqol namoyon bo'ldi. Xech qanday axloqiy, diniy, xuquqiy me'yorlar insonning destruktiv faoliyatini to'xtatib qololmayapti. Hatto yashash uchun yaratib berilgan eng qulay shart-sharoitlar ham destruktiv faoliyatni bartaraf eta olmayapti, ayni paytda u nafaqat insonlarning bir-biriga, balki tabiatga, madaniy yodgorliklarga, oddiy buyumlarga nisbatan munosabatida ham aks etmoqda. Texnika va texnologiyaning bugungi kundagi taraqqiyoti hisobga olinsa, hozirgi davrda destruktiv faoliyat nafaqat alohida olingan shaxs yoki ijtimoiy guruhga, balki



davlatlar, mamlakatlar va butun insoniyatga xavf tug'dirmoqda.

Shaxsning destruktiv xulqi, destruktiv faoliyat fenomeni so'nggi yuz yillik davomida ilmiy jamoatchilik e'tiborida bo'lib kelmoqda. Ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan insonning vayronkorlikka moyillik tabiati ta'kidlab o'tilgan bo'lsa-da, bu mavzuga Erix Frommning yirik ilmiy ishi - "Inson destruktivligi anatomiyasi" kitobigina alohida bag'ishlangan[10]. Shu bilan birga ba'zi olimlar destruksiyaning xususan, qotillik, suitsid, terrorchilik faoliyati, deviant xulq-atvor singari turli ko'rinishlariga e'tibor qaratganlar[11]. Bu hodisalar esa oydinlashtirilishi lozim bo'lgan umumiy xususiyat, asoslarga egadir[12]. Bundan tashqari destruktiv faoliyatning ayrim ko'rinishlari maxsus ixtisoslikka ega mutaxassislar tomonidan o'rganilgan. Biroq, ma'lumki, fenomenni fakat bir butun, yaxlit holda tadqiq etish uning mohiyatini anglashga yordam berishi mumkin. Mazkur mavzuni chuqur tadqiq etish, destruktiv faoliyat asosini va turli jamiyatlarda uning har xil ko'rinishlari namoyon bo'lishini tahlil qilish, destruktivlik muammosini hal etishning jaxon tajribasini umimlashtirish insonning vayronkor tabiatini jilovlab turishga va destruktiv mayllarni boshqa faoliyat sohalariga yo'naltirishga imkon beruvchi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni yaratish imkonini berishi mumkin.

Uzoq va yaqin xorij olimlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda inson destruktiv faoliyatiga ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida baho berishga harakat qilingan. Xususan, uning biologik, neyrofiziologik, psixologik va ijtimoiy asoslarini taxlil qilish, insonning tabiatidan kelib chiqib, bir butun fenomen hisoblanuvchi destruktiv faoliyat mohiyatini tushuntirib berish mumkunligi ta'kidlanadi.

Maxsus adabiyotlar, manbalarda qayd etilishicha destruktiv faoliyat tushunchasi zamirida insonning tashqi olamga nisbatan yo'naltirilgan maxsus faolliigi shakli tushuniladi. Bu faollikning mohiyati esa turli ob'yekt yoki tizimlarni vayron qilish yoxud vayron qilishga intilishda namoyon bo'ladi. Destruktiv faoliyat boshqa insonlar, jamiyat, davlat, tabiiy muhit, madaniy-tarixiy yodgorliklar, turli buyumlarga. shuningdek, shaxsning o'z-o'ziga (shaxs tubanlashuvi, inqirozi, suitsid) ham qaratilishi mumkin.

Bevosita insonning tabiatida mavjud bo'lgan destruksiya turli tartibsizliklarni keltirib chiqarib, faoliyatning pirovard maqsadi hisoblanishi ham, yaratuvchilik, ijodkorlik jarayonining tarkibiy qismi bo'lishi ham mumkin. Inson destruktiv faoliyati mohiyatini uning biologik, neyrofiziologik va psixik asosini tahlil qilmasdan tushunib bo'lmaydi. Eng avvalo, "Destruktivlik sof insoniy fenomenmi yoki boshqa jonzotlarga ham xosmi?" degan savolga javob topish zarur. Shuningdek, destruktiv faoliyatning irsiy jihatdan shartlanganligi masalasini ham o'rganish, destruksiyaning namoyon bo'lishida kishiga gormonal va asab tizimi sifatleri, psixik xususiyatlarning ko'rsatadigan ta'sirini tadqiq etish ham lozim.

Destruktiv faoliyat biologik va neyrofiziologik asoslarini tahlil etishning mushkulligi mazkur muammoga bag'ishlangan alohida amaliy ishning deyarli yo'qligi bilan izohlanadi, shuning uchun ushbu masalani ko'rib chiqishda insonlar va hayvonlarning tajovuzkorligini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalariga hamda qotillar va suitsidal harakatlarni amalga oshirishga uringan kishilar o'rtasida o'tkazilgan tajribalar natijalariga murojaat etish maqsadga muvofiqdir.

O'smirlar-muayyan qiziqish va qadriyatlarga, jamiyat ijtimoiy tuzilmalaridagi o'ziga xos o'rni va vazifalariga ega ma'lum bir yosh doirasidagi guruh vakillaridir. O'smir yoshlar turli jihatdan: yosh nuqtai nazaridan, jins bo'yicha (yigitlar va qizlar), asosiy faoliyat turi yuzasidan, yashash joyiga ko'ra (qishloq yoki shahar yoshlari) tasnif qilinishi mumkin. Mos ravishda o'smir yoshlarning guruhii o'zini o'zi anglashi va qiziqishlari doirasi ham farqlanadi.

Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan yuqoridagi kabi ijtimoiy- demografik guruh xususidagi qarashlarni umimlashtirib, uch yo'nalishga ajratish mumkin:

Birinchiidan, o'smirlilik-inson hayotiy davrining ma'lum bir davrini bildiruvchi tushuncha. Demografiya, psixologiya va pedagogikada "yosh avlod", "yoshlik davri", "o'smirlilik davri", "maktab, oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi davri" atamaları ishlatiladi. Bolalikdan yetuklikka o'tish bosqichi hisoblangan o'smirlilik davri bo'linadi. Biologik jihatdan xar ikki davr bir-biriga o'xshash bo'lsada, biroq ularning xronologik chegaralarini aniqlashtirishda muayyan jamiyat tarixiy- ijtimoiy rivojlanishi uchun xos bo'lgan ijtimoiylashuv shakli va usullari, madaniyat, ta'lim xarakteri muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta, turli tarixiy davrlarda o'smirlilikning davrii bosqichlarini aniqlashtirish mezonlari mos ravishda o'zgarib turadi. Ular an'anaviy-tarixiy va zamonaviy jamiyatlarda ham akseleratsiya jarayonlariga bog'lik holda tatbiq etiladi. Hozirgi zamon sotsiologiyasi va statistikasiida mazkur davrning yosh chegaralari 11-14 yosh etib belgilangan.

Ikkinchidan, "o'smir" atamasi zamirida yosh bilan bog'liq holdagi ijtimoiy mavqe nazarda tutiladi. O'smir yoshlarning ijtimoiy mavqeii bir xil bo'lmasdan, bu ularning asosiy faoliyat turlari (ish, o'qish, qo'shimcha faoliyat), rolly tuzilmalari, shuningdek, jamiyatda yoshlar vakillariga nisbatan shakllangan tasavvur va ste-



reotiplar bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

Uchinchidan, "o'smirlar" tushunchasi hukmron madaniyat tarkibidagi alohida, mustaqil madaniy tuzilma, submadaniyat sifatida qullaniladi. Bunda o'ziga xos qadriyatlar, me'yorlar, hayot va tafakkur tarziga ega insonlar uyushmasining muayyan shakli nazarda tutiladi. O'smir yoshlar submadaniyati odatda, yoshi nisbatan katta avlodlar dunyoqarashiga zid keluvchi muxoliflik xarakteridagi (dushmanona bo'lishi shart emas) xulq-atvor va tashqi ko'rinish, bo'sh vaqtni o'tkazish, dam olishning o'ziga xos shaklini namoyon qilishga intilishda ifodalanadi. Umuman olganda "o'smirlar" tushunchasining davriy chegaralarini aniqlashtirishda ushbu tushunchaga ilmiy va norasmiy yondashuvlar nuqtai nazaridan baho berish ham mumkin. Adabiyotlarda ilmiy nuqtai nazardan o'smirlik 11-14 yoshgacha bo'lgan davr ekanligini belgilansa-da, norasmiy jihatdan bunga turli mezonlar asosida ham yondashiladi. Chunonchi, o'smir yoshlarga xos hayot tarzi bir necha holatlarda namoyon bo'lishi ehtimoli bor: moddiy jihatdan to'liq ta'minlanmaganlik (uy-joyga ega bo'lmaslik), professional faoliyatning boshlang'ich bosqichida bo'lishi yoki oliy ta'lim muassasasida o'qishni davom ettirayotganlik va shunga mos ravishda qiziqishlar hamda faoliyatning turli-tumanligi va h.k. Bu holatlar shaxs yoshi rasmiy jihatdan belgilangan o'smirlik davridan o'tgan bo'lsa ham, uning yoshlarga xos hayot tarziga amal qilishi, o'smirlar singari faoliyat olib borishini anglatadi. Xullas, o'smir yoshlar muayyan ijtimoiy qatlam bo'lib, mazkur qatlam vakillariga jo'shqinlik, romantika, o'ziga xos hayot tarsi, hali maqsadlar va ularga erishish yo'llarining to'liq aniqlashtirib olinmaganligi, ba'zan o'z oldilariga qo'ygan maqsadlaridan chalg'ish, beqarorlik singari xususiyatlar xosdir.

Ota-onalar, pedagoglar, nisbatan yoshi katta avlod vakillarining o'smir yoshlarga xos mustaqillikka intilish, hech bo'lmaganda tashqi ko'rinishi (kiyinishi, soch turmagi, yurish-turishi va h.k.) bilan ajralib turishga, zamonaviy ko'rinishga harakat qilish kabi xatti-harakatlarni inobatga olmasliklari, butunlay qoralashlari noo'rindir. Bu jihatni tarbiyaning eng muhim vositalaridan birini bee'tibor qoldirish sifatida baholash mumkin. Chunki doim ham xar bir avlodga xos muayyan qadriyatlar katta avlod vakillari tomonidan to'liq qabul qilinmagan (bu jihatni O'zbekistan xalq shoiri Erkin Vohidov "Hozirgi yoshlar" she'rida yaxshi tasvirlagan). Ayni hollarda taqiq, ma'muriy jazolash tizimlari faoliyati samarasiz bo'lib, yoshlarga tegishli darajada maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishda ularning qiziqishlari, ehtiyojlari, psixologik xususiyatlari va qadriyatlari yo'nalishiga mos holda ish olib borish afzaldir. Ushbu fikrlarni tasdiqlash uchun juda ko'plab misollarni keltirish mumkin. Shuning uchun psixolog, pedagog va faoliyati yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq mutasaddi, rahbarlar yoshlar bilan muloqot qilish yo'llarini, ularga zarur bo'lganda kerakli darajada psixologik ta'sir o'tkaza olish malaka va ko'nikmalarini puxta darajada egallagan bo'lishlari lozim. Ayni paytda ijtimoiy-madaniy omillarning shaxs shakllanishi va rivojiga, qadriyatlar tizimiga ko'rsatadigan ta'sirini inobatga olgan holda yoshlarni destruktiv guruhlar va g'oyalar ta'siridan himoyalash masalasini hech qachon nazardan qochirmaslik zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'smirlik davri yosh davrlari psixologiyasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yosh davri xususiyatlarining tarkib topishi ko'plab individual-psixologik va ijtimoiy omillarga bog'liq. Adabiyotlarda mazkur davrga bolalikdan yetuklikka o'tish bosqichi sifatida ta'rif beriladi. Turli madaniyatlarda inson yoshining o'ziga xos bosqichlari farqlanadi. O'smirlik shaxs shakllanishida juda muhim ahamiyat kasb etadigan mas'uliyatli davrdir. Inson yakka holda rivojlanmaydi, bunda ijtimoiy muhit, yon-atrofdagilarning ta'siri kuchli bo'ladi. Ayrim teleradio kanallaridagi reklamalar, bukletlar, turli xorij matbuot nashrlaridagi maqolalar-bularning hammasi axboriy manipulyatsiya ta'siriga tushmaslik maqsadida shakllantiriladigan ko'nikmalarni tarkib toptirishda asosiy manba, "ko'rgazmali qurol" bo'lishi mumkin. Shu bilan birga turli OAVlarining kishi ongiga ta'siri masalasidan tashqari, har xil destruktiv guruhlar, kult va sektalarning shaxs, davlat, jamiyat xavfsizligiga ko'rsatayotgan tahdidi ko'lami ham hozirgi vaqtda oshib bormoqda. Bunday guruhlariga a'zolari jalb qilish va ongni nazorat qilish modeli, guruhiy bosim ko'rsatish usullari va "aqlni yuvish (peshlash)" vositalari to'g'risida nafaqat talabalar, balki o'qituvchilar ham yetarli ma'lumotga ega emaslar. Shu tariqa, kishi ongiga destruktiv ta'sir ko'rsatilish ehtimoli xavfi yuqori darajada qolmoqda. Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida, turli vositalar orqali berib boriladigan axborotlar o'smirlarning psixologik qaramlik sirtmog'iga tushib qolish xavfini imkon qadar pasaytirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

O'smirlarni destruktiv g'oyalar ta'siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik asoslarini yaratishda antimanipulyativ xulq-atvorni shakllantirishga alohida e'tibor berish zarur. Antimanipulyativ xulq dogmatik xarakterga ega bo'lmasdan, uning rivojlanishiga ijtimoiy, biologik, psixologik va siyosiy omillar ta'sir o'tkazadi. Ushbu xulq modelini yaratishda ijtimoiy-biologik, psixosotsial unsurlardan foydalanish samarali natija



beradi. Bu davrdagi shaxsga xos bo'lgan individual-psixologik xususiyatlar bilan nosog'lom ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro moslik va ularning bir-birini to'ldirishi o'smirlarning destruktiv g'oyalar ta'siriga tushib qolishiga imkon yaratadi. O'smirlarda assertiv xulq shakllanmaganligi, mafkuraviy immunitet tarkib topmaganligi, axborot iste'moli madaniyati lozim darajada rivojlanmaganligi ularning destruktiv g'oyalar ta'siriga tushishida asosiy sabablar sifatida namoyon bo'ladi. O'smirlar, yigit va qizlarni destruktiv g'oyalar ta'siridan himoyalashga qaratilgan chora-tadbirlar va tavsiyalarni ishlab chiqishda kompleks yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda, avvalo, ijtimoiy-psixologik, individual-psixologik, yosh, jinsiy, hududiy va demografik omillar chuqur tahlil qilinishi lozim. Har bir o'smirlarning ijtimoiy tajribasi, oila va mahalla muhiti, ta'lim darajasi, axborot maydonidagi faol ishtiroki, shuningdek, u yashayotgan hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar — destruktiv g'oyalarga moyillik darajasini belgilovchi muhim determinantlar sifatida qaraladi. Shu sababli, profilaktika choralari universal emas, balki individual yondashuv asosida, ya'ni yoshlar psixologiyasi, gender farqlari, hududiy madaniyatlar, ijtimoiy-iqtisodiy holat va ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tizimiga mos tarzda ishlab chiqilishi lozim.

Bundan tashqari, chora-tadbirlar nafaqat tashqi nazorat va ma'muriy cheklovlar shaklida, balki yoshlarning ichki psixologik resurslarini — o'zini anglash, ijtimoiy mas'uliyat, mustahkam hayotiy maqsadlar, stressga chidamlilik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali amalga oshirilishi samaraliroq bo'ladi. Bu borada psixoprofilaktika va psixopedagogik yondashuvlar, ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy tarmoqlardagi axborot monitoringi, yoshlar yetakchilari va murabbiylar tarmog'ini kuchaytirish muhim amaliy yo'nalishlar sirasiga kiradi.

Natijada, yosh avlodni destruktiv mafkura va zararli g'oyalar ta'siridan himoyalash bo'yicha ishlab chiqiladigan konseptual tavsiyalar ilmiy asoslangan, differensial yondashuvga ega, zamonaviy psixologik va sotsiologik mexanizmlarga tayangan, milliy-ma'naviy qadriyatlarni hisobga olgan holda shakllantirilishi lozim.

Etnopsixologik xususiyatlarni inobatga olish lozim. Psixologik himoya mexanizmlarining tarkib topishi yosh davrlariga xos o'zgarishlar tabiatiga uzviy bog'lik bo'lib, yoshlik davriga xos psixologik himoya mexanizmlarining amal qilishida shaxs xususiyatlariga bog'lik ravishda qabul qilinadigan psixologik himoya ko'rinishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga o'smirlarning mikro va makro muhitga nisbatan ijtimoiy-psixologik jihatdan moslasha olmasliklari ularning destruktiv g'oyalar va guruhlar ta'siriga tushishi ehtimolini oshirishi mumkin. Ta'lim va tarbiya jarayonida nafaqat insonning bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirishga, balki undagi assertivlik xususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga ham e'tibor berilishi maqsadga muvofiqdir. Shu maqsadda tanqidiy tafakkur, refleksiya va assertivlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, psixologik manipulyatsiya va uning ta'sirini bartaraf etish vosita va usullarini tadqiq etish, yoshlarda zaruriy ko'nikmalarni shakllantirish hozirgi davrda ahamiyat berilishi zarur bo'lgan muhim vazifalardandir. Shu nuqtai nazardan, mamlakat, shaxs xavfsizligiga tahdidlarning mavjudligi sharoitida ularga munosib va o'z vaqtida javob bera olishga qodir xulq shaklini tarkib toptirish va mazkur masalaning metodologik ahamiyatini yoritish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Blackburn R. The Psychology of Criminal Conduct. New York: John Wiley & Sons Ltd., 2002.
2. Bonta W., Andrews R., Hoge T. The Psychology of Antisocial Behavior // Criminal Justice and Behavior. 1990. Vol. 17. P. 19–52.
3. Кудрявцев В.Н. Генезис преступления: Опыт криминологического моделирования. — М., 1998.
4. Реан А.А. Характерологические особенности подростков-делинквентов // Вопросы психологии. 1991.
5. Братусь Б.С. Аномалии личности. — М.: Мысль, 1988.
6. Комилова А., Махмудова Х. (2023). O'smirlarda destruktiv xulq ko'rinishlarini shakllanishi // Informatika va muhandislik texnologiyalari, 1(2). URL: <https://inlibrary.uz/index.php/computer-engineering/article/view/25658>
7. Mirzayeva S. H. (2023). O'smirlarda agressiv xulq-atvor shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar // Qo'qon universiteti xabarnomasi, 1(1), 812–815. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.727>
8. Kamolova S. (2021). Implementation of pedagogical ethics in future teachers // Журнал педагогики и психологии в современном образовании, (3).
9. Kulatova S.Y. O'smirlarda destruktiv axborotlarni qabul qilishning psixologik determinantlari // Academic Research in Educational Sciences. 2025. № NUU Conference 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-smirlarda-destruktiv-axborotlarni-qabul-qilishning-psixologik-determinantlari>
10. Фромм Э. Бегство от свободы. — М., 1990.
11. Блэкборн Р. Психология криминального поведения. — СПб.: Питер, 2004.
12. Клейберг Ю.А. Психология девиантного поведения: Учебное пособие для вузов. — М.: Сфера, 2001.
13. http://www.who.int/mental_health/prevention/suicide_rates/en/index.html; <https://www.janes.com>

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Alibek ZOKIROV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin SOBIR O'G'LI

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Toshkent davlat pedagogika universitetining murojaatiga (24-04-2025 y., №11-05-2566/01) ko’ra, psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilganligini ma’lum qiladi.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (25-05-2025 y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (07-05-2025 y., №5/6); OAK Rayosatining qarori (08-05-2025 y., №370/5).

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug’bek tumani
Kumushkon ko’chasi, 26-uy.